



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH
VAZIRLIGI TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI REKTOR V.V.
B.INING
BUYRUG‘I**

2023 yil “23” noyabr 02119 - son

**2024-yili uchun Oliy ta’limdan keyingi ixtisosliklariga tanlov o‘tkazish
to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi VMQ-304-sonli «Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori (keyingi o‘rinlarda VMQ-304 deb ataladi), O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori (keyingi o‘rinlarda PQ-5117 deb ataladi) hamda 2023-yil 23-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 65-son buyrug‘i “2023/2024 o‘quv yilidan boshlab oliy ta’lim muassasalarining magistratura mutaxassisliklariga hamda oliy ta’limdan keyingi ta’lim ixtisosliklariga hujjat topshirishda talab etiladigan xorijiy tillarni bilish darajasini baholovchi milliy va xalqaro tan olingan sertifikatlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyruqlarga muvofiq 2024-yilda Davlat budjeti mablag‘lari hisobiga tayanch doktorantura va doktoranturada o‘qitish uchun (keyingi o‘rinlarda Doktorantura deb ataladi) qabul kvotalari taqsimot ijrosini sifatli ta’minlash maqsadida

B U Y U R A M A N:

1. Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori (F.Azizova) va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i (Z.Muminova)larga:

Doktoranturaga qabulni 2024-yil uchun VMQ-304 va PQ-5117 talablariga qat’iy rioya qilgan holda amalga oshirishni ta’minlansin;

PQ-5117 belgilangan talablariga muvofiq chet tilini bilish milliy sertifikatga ega Doktorantlar mutaxassislik fanlaridan o‘tkaziladigan imtihonga (keyingi o‘rinlarda Imtihon deb ataladi) qatnashishiga ruxsat berilsin;

Mutaxassislik fanlaridan 47 nafar nomlari ko'rsatilganlar ro'yxati 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin hamda joriy yil 27- noyabrda Imtihon (suhbat) o'tkazilsin;

Imtihon qabul qilish komissiyasi (keyingi o'rinlarda Komissiya deb ataladi) tarkibi 2-ilovaga va Apellyatsiyasi Komissiya tarkibi 3-ilovaga muvofiq tasdiqlanib, to'liq tarkibda VMQ-304 Nizomiga amal qilgan holda Imtihonlarni shaffof va adolatli o'tishida Komissiya raisi va rais o'rinbosarlari mas'ulligi qayd etilsin;

Doktorantura tanlovida ishtirok etuvchilar hujjatlarini, Imtihonda qatnashgan talabgorlarning ballari ketma-ketlikdagi ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Sog'liqni saqlash vazirliklariga o'rnatilgan tartibda taqdim etilsin hamda qabul natijalarini Yagona axborot elektron tizimiga kiritilishi ta'minlansin;

Doktorantura Imtihonlaridan muvaffaqiyatli o'tib, o'rnatilgan tartibda qabul kvotalari doirasida qabul qilingan Doktorantlar o'quv jarayonini 2024-yilning 1-yanvaridan boshlanishi ta'minlansin;

2. Raqamli ta'lim texnologiyalari markazi boshlig'i (A.Musaxonov) va Murojaatlari bilan ishlash, nazorat va monitoring bo'limi boshlig'i (D.Achilov)lar Doktorantura Imtihonlari shaffof va adolatli o'tishini tashkillashtirishda to'liq video kuzatuv ostida o'tkazish choralari ko'rib, tasvirni o'rnatilgan tartibda saqlashni nazoratga olishini ta'minlansin.

3. Mazkur buyruqning ijrosini nazorat qilish o'z zimnamda qoldiraman.

Rektor v.v.b.



Sh.Boymuradov

Buyruq kelishuvi

Tayyorladi:

Z.Muminova

Bo'lim boshlig'i

Kelishildi:

Sh.Boymuradov

Rektor v.v.b.

F.Azizova

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha
prorektor**

S.Yusupova

Bo'lim boshlig'i

A.Musaxonov

Markaz rahbari

D.Achilov

Bo'lim boshlig'i